



AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA ALOQA SOHASIDA
KASBIY MALAKALARNI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA
TARMOQ KENGASHI

KASBIY STANDART
KOMPYUTER GRAFIKASI
MUTAXASSISI



“Kompyuter grafikasi mutaxassisi” kasbiy standarti 2025-yil 18-dekabrda Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha Respublika kengashi majlisining 114-son bayoni bilan tasdiqlangan “Kasbiy standart shakli” hamda Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti direktorining 2025-yil 19-dekabrda 55-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Kasbiy standartlarni ishlab chiqish va yangilash metodologiyasi”ga muvofiq, Axborot texnologiyalari va aloqa sohasida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha tarmoq kengashi tomonidan ishlab chiqilgan.

KASBIY STANDART

Kompyuter grafikasi mutaxassisi

Reyestr raqami:

UZ-KS-2026-T1.0-0068



I. Umumiy ma'lumotlar

1. Kasbiy standartning qo'llanilish sohasi: Ushbu Kasbiy standart "Kompyuter grafikasi mutaxassisi", "Kompyuter grafikasi operatori", "Veb-saytlar administratori" va "Axborot texnologiyalari infratuzilmasi muhandisi" kabi kasblar uchun ta'lim dasturlarini ishlab chiqishda, kasbiy malakalarni mustaqil baholashda, shuningdek, tashkilotlarda kadrlar siyosati, lavozimlar tarkibi va xodimlarni rivojlantirish kabi masalalarni hal qilishda qo'llaniladi.

Kompyuter grafikasi mutaxassislari axborot texnologiyalari sohasidagi vizualizatsiya, 2D va 3D modellashtirish, animatsiya, multimedia, dizayn va raqamli kontent yaratish kabi vazifalarni bajaradi. Ushbu mutaxassislik sanoat, ta'lim, marketing, muhandislik, tibbiyot, arxitektura, veb va mobil ilovalarni ishlab chiqish sohalarida keng qo'llaniladi.

2. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi asosiy tushunchalar va atamalar qo'llaniladi:

animatsiya – harakatlanuvchi vizual kontent yaratish usuli;

dizayn dasturlari – kompyuter grafikasi va dizayn sohasida foydalaniladigan maxsus dasturlar (Adobe Photoshop, Illustrator, CorelDRAW, Blender, 3ds Max, AutoCAD, va h.k.);

kompyuter grafikasi – bu kompyuter vositasidan foydalangan holda turli tasvirlar, shakllar, animatsiyalar va vizual effektlarni yaratish, qayta ishlash va namoyish etish texnologiyasi;

2D grafika – ikki o'lchovli (kenglik va balandlik) tasvirlar va obyektlar bilan ishlash;

3D modellashtirish – obyektlarni uch o'lchamli shaklda yaratish, tahrirlash va vizuallashtirish jarayoni;

vektor grafika – matematik formulalarga asoslangan cheksiz aniqlikdagi grafik tasvirlar;

kompyuter vizualizatsiyasi – ma'lumot va obyektlarni grafik ko'rinishda tasvirlash va taqdim etish usuli;

multimedia – matn, ovoz, video, grafika va animatsiya elementlarini birgalikda ishlatish texnologiyasi;

raqamli dizayn – grafik va vizual elementlarni raqamli muhitda yaratish va tartiblash jarayoni;

rastr grafika – bu tasvirlarni piksel deb ataluvchi mayda nuqtalar yig'indisi orqali ifodalovchi grafik tasvirlar turi.

3. Kasbiy standartni ishlab chiqishga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-oktabrdagi "Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4851-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-345-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-maydagi "Bolalar uchun mo'ljallangan milliy kontentlar yaratish va ularni ommalashtirishni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-183-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 275-son Qarori (IFUT-2.1);

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 16-iyuldagi "Yengil sanoat sohasida o'rta bo'g'in kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish hamda Dizayner va texnologlarni tayyorlash texnikumlarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 427-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 17-apreldagi "Yoshlarni kasbga (mutaxassislikka) va chet tillariga o'qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 213-son Qarori.

4. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi qisqartirishlar qo'llaniladi:

IFUT – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlarining umumdavlat tasniflagichi;

MMR – Milliy malaka ramkasi;

MMK – Mashg'ulotlarning milliy klassifikatori;

TMR – Tarmoq malaka ramkasi.

II. Kasbiy standartning pasporti

1.	Kasbiy standartning nomi:	Kompyuter grafikasi mutaxassisi	
2.	Faoliyatning asosiy maqsadi:	Kompyuter grafikasi sohasida 2D va 3D vizual obyektlar, animatsiyalar, multimedia elementlarini yaratish va tahrirlash orqali raqamli vizualizatsiya jarayonlarini samarali tashkil etish; ishlab chiqarish, ta'lim, marketing, arxitektura, tibbiyot va axborot texnologiyalari kabi sohalarda grafik ko'mak va vizual kontent sifatida yuqori samara bilan xizmat ko'rsatish.	
3.	IFUT bo'yicha seksiya, bo'lim, guruh, sinf va kichik sinf:	K seksiyasi – Aloqa, kompyuter dasturlashtirish, konsalting, hisoblash infratuzilmasi va boshqa axborot xizmatlar sohasidagi faoliyat; 63-Hisoblash infratuzilmasi, ma'lumotlarni qayta ishlash, xosting va boshqa turdagi axborot xizmatlari sohasidagi faoliyat; 63.9-Veb-qidiruv portali faoliyati va boshqa axborot xizmati faoliyati; 63.92-Boshqa axborot xizmatlari faoliyati; 63.92.0-Boshqa axborot xizmatlari faoliyati	
4.	Kasbiy standartning qisqacha mazmuni:	Kompyuter grafikasi sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassislar uchun 2D/3D modellashtirish, vizualizatsiya, grafik dizayn, animatsiya, multimedia texnologiyalari, veb-dizayn va boshqa raqamli vizual kontentlar bilan ishlash bo'yicha bilim va ko'nikmalarni belgilaydi. Ushbu standart ish beruvchilar, ta'lim muassasalari va malakani baholash markazlari uchun asosiy mezon sifatida xizmat qiladi.	
5.	Qamrab olingan kasblar ro'yxati va malaka darajasi:	Kasblar kodi va nomi:	TMR dagi malaka darajasi:
		21661-Kompyuter grafikasi mutaxassisi	4
		41320-Kompyuter grafikasi operatori	4
		35140008-Veb-saytlar administratori	5
		25232002-Axborot texnologiyalari infratuzilmasi muhandisi	6

III. Kasbiy faoliyat turining funksional xaritasi

Kasblar		Mehnat funksiyalari		Mehnat vazifalari			
T/r	Kodi va nomi	Kodi	Nomi	Kodi	Nomi		
1.	21661– Kompyuter grafikasi mutaxassisi	A1.4	Grafik kontentni yaratish va tahrirlash	A1.01.4	Raster va vektor grafika yaratish		
				A1.02.4	Loyiha uchun grafik dizayn konsepsiyasini ishlab chiqish		
				A1.03.4	Dizaynlarni eksport qilish va formatlash		
		A2.4	2D va 3D modellashtirishni amalga oshirish	A2.01.4	3D modellar yaratish (obyektlar, muhit, personaj)		
				A2.02.4	Modellarga material va teksturalar berish		
				A2.03.4	Yorug'lik va kamera pozitsiyasini sozlash		
				A2.04.4	Tayyor modellarni vizuallash va eksport qilish		
		A3.4	Grafik muhitda ishlovchi dasturlardan foydalanish	A3.01.4	Photoshop, Illustrator, CoreIDRAW, Blender kabi dasturlarda ishlash		
				A3.02.4	Grafik fayllar turlari va formatlari bilan ishlash		
				A3.03.4	Kompyuter resurslarini samarali boshqarish		
		2.	41320– Kompyuter grafikasi operatori	B1.4	Kompyuterda tayyor grafik materiallar bilan ishlash	B1.01.4	Rasm, logotip, banner, diagramma kabi tayyor tasvirlar bilan ishlash
						B1.02.4	Berilgan uslub va shablonlar asosida tasvirlarni tahrirlash
B1.03.4	Kontentni qayta ishlash va turli formatlarga moslashtirish						
B2.4	Grafik dasturlar va qurilmalarda ishlash			B2.01.4	Adobe Photoshop, CorelDraw, Illustrator dasturlarida amaliy ishlarni bajarish		
				B2.02.4	Printer, skaner, plotter, grafik planshetlardan foydalanish		
				B2.03.4	Fayllarni turli o'lcham va talabga mos ravishda tayyorlash		

		B3.4	Chop etish va raqamli tayyorlov ishlarini amalga oshirish	B3.01.4	Grafik kontentni chop etish uchun texnik jihatdan tayyorlash
				B3.02.4	Chop etish qurilmalarini konfiguratsiyalash va boshqarish
				B3.03.4	Chop etish sifati, rang mosligi va o'lchamlarini tekshirish
3.	35140008– Veb-saytlar administratori	D1.5	Veb-serverlarni boshqarish va texnik xizmat ko'rsatish	D1.01.5	Veb-serverlarni o'rnatish va konfiguratsiya qilish
				D1.02.5	Xosting muhitini yaratish va monitoring qilish
				D1.03.5	Server xavfsizligini ta'minlash
		D2.5	Veb-server orqali xizmat ko'rsatishni tashkil etish	D2.01.5	Zaxira nusxalarini yaratish va tiklash (backup & restore)
				D2.02.5	FTP, HTTP, HTTPS, DNS va boshqa xizmatlarni faollashtirish
				D2.03.5	Foydalanuvchi sessiyalarini boshqarish
		D3.5	Veb-sayt va veb-ilovalarni joylash va yuritish	D2.01.5	Server jurnallarini kuzatish va tahlil qilish
				D3.02.5	Veb-fayllarni serverga joylash va tegishli ro'yxatlar bilan ishlash
				D3.03.5	Kontentni to'g'ri yuklash va ishlashini sinovdan o'tkazish
4.	25232002 – Axborot texnologiyalari infratuzilmasi muhandisi	E1.6	Axborot tizimlari va uskunalarni boshqarish	E1.01.5	Sayt ish faoliyatini muntazam tekshirib borish
				E1.02.6	Operatsion tizimlarni o'rnatish va texnik xizmat ko'rsatish
				E1.03.6	Antivirus va axborot xavfsizligi choralarni ta'minlash
		E2.6	Axborot tizimlari va dasturiy ta'minotni ishlatish	E2.01.6	Dasturlar, bazalar va ilova tizimlarini yuritish
				E2.02.6	Foydalanuvchilarga dasturiy yordam ko'rsatish
				E2.03.6	Tizimdagi muammolarni aniqlash va hal qilish
		E3.6	Axborot texnologiyalari loyihalarini amalga oshirish	E3.01.6	Yangilanish, avtomatlashtirish va raqamlashtirish bo'yicha takliflar tayyorlash
				E3.02.6	Axborot infratuzilmasini tahlil qilish va yaxshilash choralarni ishlab chiqish
				E3.03.6	Boshqa xodimlar bilan hamkorlikda IT loyihalarni amalga oshirish

IV. Kasblar xaritasi va mehnat funksiyalari tavsifi

Kasbning nomi:	Kompyuter grafikasi mutaxassisi
Mashg'ulot nomining kodi:	21661
TMR bo'yicha malaka darajasi:	4
Malakani baholash bo'yicha talablar:	Tavsiya etiladi
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Ish staji talab etilmaydi
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	<p>Maxsus ruxsatlar:</p> <p>18 yoshga to'lgan bo'lishi;</p> <p>Erkak va ayol;</p> <p>Ishga kirishda dastlabki tibbiy ko'rikdan o'tgan bo'lishi;</p> <p>Psixik barqarorlik, ko'rish, ranglarni farqlash, katta e'tibor va diqqatni jamlash qobiliyatining yetarliligi, shuningdek kompyuter bilan uzoq muddat ishlashga moslashuvchanlik talab etiladi.</p> <p>Ishga munosabat va xulq-atvor:</p> <ul style="list-style-type: none"> - Kasbiy faoliyat doirasida vujudga keladigan turli masalalar yechimini topish usullarini tanlay olish; - Rahbar tomonidan belgilangan maqsadga erishish uchun jamoada ishlay olish; - O'zining kasbiy malakasini va shaxsiy kamolotini takomillashtirib borish; - Jamoada va ma'lum vazifani bajarishga yo'naltirilgan guruhda ishlash, hamkasblar, rahbarlar va mijozlar bilan samimiy, xushmuomala hamda samarali muloqot qilish; - Ta'lim olgan tilida fikrini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qilish; - Umuminsoniy fazilatlarga ega bo'lish, o'z millatini va Vatanini sevish, u bilan faxrlanish, milliy urf-odatlar, qadriyatlarni hurmat qilish; - Professional vazifalarni samarali bajarish uchun zarur bo'ladigan ma'lumotlarni qidirish; - Kasbiy faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash; - Kasbga doir hujjatlar bilan ishlash; - Kasbiy faoliyatda xavfsizlik texnikasi va mehnat muhofazasi qoidalariga amal qilish ko'nikmalariga ega bo'lish; - Sanoat va nosanoat tashkilotlarda vujudga keladigan chiqindilarni atrof-muhitga zarar yetkazmaslik choralarini ko'rish va utilizatsiya qilish; - Sohaga oid ekologik madaniyatga rioya qilgan holda faoliyat olib borish.
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	O'rta professional ta'lim

Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	Umumiy o'rta (o'rta maxsus) ta'lim yoki boshlang'ich professional ta'lim+norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:	-	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	5 – razryadli ishchi Grafik muhitda ishlovchi operator	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	4	Kompyuter grafikasi mutaxassisi
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
A1.4 – Grafik kontentni yaratish va tahrirlash	A1.01.4 - Rastr va vektor grafika yaratish	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Adobe Photoshop, Illustrator, CorelDraw kabi dasturlarda yangi fayl yaratish
		2. Rastr tasvirlar asosida ishlash: fotolarni tahrirlash, filtr va effektlarni qo'llash
		3. Vektor elementlarini yaratish: logotip, piktogramma, shakllar tuzish
		4. Qatlamlar (layers), maskalar (masks) va effektib elementlardan foydalanish
		5. Rang rejimlarini (RGB, CMYK) loyiha maqsadiga mos tanlash
		Ko'nikmalar:
		Adobe Photoshopda rastr tahriri amallarini bajara olish
		Adobe Illustrator/CorelDraw'da vektor shakllar yarata olish
	Qatlamlar bilan ishlash, maskalarni sozlash va effektlar qo'llash	
	Rang balansi va hajmni optimallashtirish	
	Bilimlar:	
	Rastr va vektor grafikaning farqi va qo'llanish sohalari	
	Tasvir o'lchami, rezolyutsiya va sifat tushunchalari	
	Adobe dasturlari asosiy interfeysi va instrumentlari	
	Fayl formatlari va ularning afzalliklari	
	A1.02.4 – Loyiha uchun grafik dizayn konsepsiyasini ishlab chiqish	Mehnat harakatlari:
		1. Mijoz yoki topshiriqchi talablarini tahlil qilish
		2. Dizaynning umumiy uslubini aniqlash (rang palitrasi, shrift, komponovka)
3. Eskiz, mudbord va dizayn g'oyalarini taqdim etish		
4. Turli variantlar ishlab chiqib, eng maqbulini tanlash		
5. Loyiha maqsadidan kelib chiqqan holda funksional va vizual yechim yaratish		
Ko'nikmalar:		
Talab va texnik topshiriq asosida grafik yechim loyihalash		
Komponovka, vizual iyerarxiya va dizayn qonunlarini qo'llash		

		Fikrni vizual shaklda ifoda qila olish (mudbord, sketch, kompozitsiya)
		Mijoz bilan dizayn yuzasidan muloqot va muhokama qila olish
		Bilimlar:
		Grafik dizayn nazariyasi: kontrast, balans, ritm, aksent
		Tartib va vizual iyerarxiya qoidalari
		Zamonaviy dizayn tendensiyalari (flat, minimal, skeuomorphic va h.k.)
		Prezentatsiya qilish uslublari va dizayn himoya qilish madaniyati
	A1.03.4 – Dizaynlarni eksport qilish va formatlash	Mehnat harakatlari:
		1. Tayyor grafik materiallarni kerakli fayl formatida saqlash
		2. Veb, chop yoki animatsiya maqsadlari uchun o'lcham, rezolyutsiya va formatni tanlash
		3. Rang modellarini to'g'ri tanlash va aylantirish (RGB ↔ CMYK)
		4. Grafik faylni sifatdan oshirmasdan hajmini optimallashtirish
		5. Fayllarni nomlash, arxivlash va mijoz/loyiha bo'yicha tasniflash
		Ko'nikmalar:
		PSD, AI, PDF, SVG, PNG, JPG va boshqa formatlarda eksport qilish
		Loyihaga mos format va sifatni tanlay olish
		Dizaynni chop etish, veb yoki mobil qurilmalarga moslashtirish
		Arxivlash va ma'lumotlarni to'g'ri tasniflash
		Bilimlar:
		Fayl formatlari va ularning afzallik/kamchiliklari
Veb va chop uchun texnik talablar (rezolyutsiya, rang, o'lcham)		
Kompressiya va sifat saqlash balansi		
Arxivlash, backup va ma'lumot xavfsizligi asoslari		
Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Grafik dasturlardan (Photoshop, Illustrator, CorelDRAW, Blender va boshqalar) to'g'ri va maqsadli foydalanish uchun shaxsiy mas'uliyatni his qilish	
	2. Grafik fayllar formati, sifati va tuzilishi bo'yicha to'g'ri qaror qabul qilish, loyiha talablariga moslashtirish	
A2.4 – 2D va 3D modellashtirishni amalga oshirish	A2.01.4-3D modellar yaratish (obyektlar, muhit, personaj)	Mehnat harakatlari:
		1. 3D muharrir dasturida yangi fayl va ssena yaratish
		2. Asosiy obyektlarni (kub, silindr, sfera va h.k.) generatsiya qilish
		3. Ularning shaklini o'zgartirish (extrude, scale, rotate, deform)
		4. Muxit (scenery) va personaj asosini (skeleton, body mesh) tuzish
		5. Obyektlar o'rtasidagi tuzilish va guruhlashni amalga

		<p>oshirish</p> <p>Ko'nikmalar:</p> <p>Blender, 3ds Max, Maya yoki ZBrush dasturlarida ishlash</p> <p>Modellashtirishning asosiy amaliyotlari: extrusion, subdivision, topology</p> <p>Personaj modellashtirish va simmetriya qo'llash</p> <p>Ssena tashkil etish va obyektlar iyerarxiyasi</p> <p>Bilimlar:</p> <p>3D modellashtirishning asosiy tushunchalari</p> <p>Modellarning poligonaj tuzilishi (low poly / high poly)</p> <p>Obyektlar va muhit ichidagi masshtab va proporsiyalar</p> <p>Personaj modellashtirish anatomiyasi va strukturasi</p>
	A2.02.4 – Modellarga material va teksturalar berish	<p>Mehnat harakatlari:</p> <p>1. Model uchun material (diffuse, specular, bump va h.k.) yaratish</p> <p>2. Tekstura faylini import qilish va UV mapping amalini bajarish</p> <p>3. Materiallarning rang, yaltiroqlik, to'lqin, shisha effektlarini sozlash</p> <p>4. Teksturalarni real obyektga yaqinlashtirish uchun tuzatishlar kiritish</p> <p>5. Normal, bump va ambient occlusion kabi kartalarni qo'llash</p> <p>Ko'nikmalar:</p> <p>Materiallar redaktori bilan ishlash (Shader editor, Node system)</p> <p>UV unwrap va tekstura qoplash usullarini bajara olish</p> <p>PBR (Physically Based Rendering) modellari bilan ishlash</p> <p>Tekstura effektlarini vizual baholay olish</p> <p>Bilimlar:</p> <p>Material va tekstura tushunchalari, fayl formatlari (JPG, PNG, TGA)</p> <p>UV mapping va teksturali koordinatalar</p> <p>Render jarayonida materiallarning roli</p> <p>Yorug'lik bilan o'zaro ta'sirda materialning xulq-atvori</p>
	A2.03.4 – Yorug'lik va kamera pozitsiyasini sozlash	<p>Mehnat harakatlari:</p> <p>1. Ssenalarga yorug'lik manbaini qo'shish (sun, point, spot, HDRi va h.k.)</p> <p>2. Yorug'lik ostida obyektlarning soya va nur tarqalishini sozlash</p> <p>3. Kamera nuqtalarini joylashtirish va harakat trayektoriyasini belgilash</p> <p>4. Kamera parametrlarini tanlash (focal length, aperture, depth of field)</p> <p>5. Yorug'lik va kamera test-renderlarini o'tkazish</p> <p>Ko'nikmalar:</p> <p>Yorug'lik turlarini to'g'ri tanlay olish</p> <p>Kamera burchagi, perspektiva va kompozitsiyani sozlay olish</p>

		Rejissyorlik nuqtayi nazaridan kadr tuzish	
		Vaqtincha render orqali yorug'lik va kamera ta'sirini baholay olish	
		Bilimlar:	
		Yorug'lik manbalari va optik effektlar (specular, reflection)	
		Kamera parametrlari va ularning kompozitsiyaga ta'siri	
		3D muhitda vizual estetika qoidalari	
		Render oldidan tayyorlash jarayonlari	
	A2.04.4 – Tayyor modellarni vizuallash va eksport qilish	Mehnat harakatlari:	1. Modelni vizuallash uchun ssena tayyorlash
			2. Tayyor modelni turli formatlarga eksport qilish (FBX, OBJ, STL, GLB)
			3. Vizual tayyor ko'inishini real vaqtda sinash
			4. Model detallarini sinovdan o'tkazish va optimallashtirish
			5. Render natijalarini saqlash va taqdimot uchun tayyorlash
		Ko'nikmalar:	Eksport va import amaliyotlarini bajara olish
			Vizual tayyorgarlik va light bake kabi usullardan foydalanish
			Qabul qiluvchi tizim talablariga moslashtirish
			Qisqartirish va poligon optimallashtirish
			Bilimlar:
			Eksport formatlarining farqlari va qo'llanilishi
			Vizual sifatni saqlagan holda optimallashtirish tamoyillari
			Render va real vaqt vizualizatsiya asoslari
Mas'uliyat va mustaqillik:	1. 3D modellar, materiallar, teksturalar, yorug'lik va kamera sozlamalarini texnik topshiriq hamda dizayn talablariga muvofiq mustaqil ravishda yaratish va optimallashtirish uchun javobgar		
	2. Vizual sifat, realizm va sahna kompozitsiyasini ta'minlashga mas'ul		
	3. Tayyor modellarni belgilangan formatlarda eksport qilishga mas'ul		
A3.4 – Grafik muhitda ishlovchi dasturlardan foydalanish	A3.01.4 – Photoshop, Illustrator, CorelDRAW, Blender kabi dasturlarda ishlash	Mehnat harakatlari:	
		1. Grafik muharrir dasturlarini ishga tushirish va interfeys elementlari bilan tanishish	
		2. Yangi loyiha yaratish, hujjat o'lchami, rang rejimi va formatini belgilash	
		3. Qatlamlar, effektlar va filtrlardan foydalangan holda tasvirlar yaratish va tahrirlash	
		4. Vektorli va rastri obyekt bilan ishlash	
	5. 2D/3D funksiyalarini ishga solgan holda animatsiya yoki model yaratish (Blender)		
	Ko'nikmalar:	Photoshop, Illustrator, CorelDRAW, Blender dasturlarini ishlatish	
		Layer, shape, pen, transform va texture funksiyalarini amalga oshirish	

		Vektor va rastr grafikasini tuzish va tahrirlash
		Masshtablash, burish, gradiyent va effektlardan samarali foydalanish
		Bilimlar:
		Grafik muharrir dasturlarining imkoniyatlari va farqlari
		Vektorli (SVG, AI) va rastrli (JPG, PNG, PSD) formatlar
		Kompozitsiya, kollaj va vizual balans asoslari
		Blenderda modellashtirish va viewport tushunchalari
	A3.02.4 – Grafik fayllar turlari va formatlari bilan ishlash	Mehnat harakatlari:
		1. Loyihaga mos formatda yangi fayl yaratish yoki mavjud faylni import qilish
		2. Grafik fayllarni saqlash, konvertatsiya qilish va optimallashtirish
		3. Fayl formatining rezolyutsiya, faoliyat maydoni, shifrlanganlik va sifat ko'rsatkichlarini tekshirish
		4. Web, poligrafiya yoki animatsiya uchun mos formatni tanlash (PDF, SVG, JPG, PNG, GIF, WebP va h.k.)
		5. Rasm hajmini kamaytirib, vizual sifatni saqlashni ta'minlash
		Ko'nikmalar:
		Grafik fayllar turlari va qo'llanish sohasini tanib olish
		Konvertatsiya va eksport jarayonlarini to'g'ri amalga oshirish
		Fayl sifatini tahlil qilish va turli qurilmalarga moslashtirish
		Fayllar bilan arxivlash, saqlash va tizimlash ko'nikmalari
		Bilimlar:
		Fayl formatlarining texnik xususiyatlari
		Poligrafiya va veb uchun mos formatlar
		Animatsiya va video uchun kadrli formatlar
	Tasvir sifatini saqlagan holda minimal hajmda tayyorlash usullari	
	A3.03.4 – Kompyuter resurslarini samarali boshqarish	Mehnat harakatlari:
		1. Dastur ishlatish jarayonida operativ xotira, disk hajmi va protsessor yuklamalarini kuzatish
		2. Katta hajmli fayllar bilan ishlashda optimal qurilma imkoniyatlaridan foydalanish
3. Avtomatik saqlash, cache management va preview qiymatlarini sozlash		
4. Qo'shimcha modullar va plaginlarni faollashtirish yoki vaqtincha o'chirish		
5. Resurslarni tejash uchun resolution, format va real-time funksiyalarni optimallashtirish		
Ko'nikmalar:		
Task Manager, Resource Monitor, Blender system settings kabi vositalar bilan ishlash		
Kesh, autosave va undo/redo funksiyalarini boshqarish		
GPU/CPU yuklamasini tahlil qilish va optimal foydalanish		
Katta loyihalarda fayl yuritish tizimini samarali tashkil etish		

		<p>Bilimlar:</p> <p>Kompyuter qurilmalari imkoniyatlari</p> <p>Dastur ichida tizim resurslari bilan bog'liq sozlamalar</p> <p>Multimedia muhitida samarali ishlash strategiyalari</p> <p>Kompyuterni ortiqcha yuklamadan himoya qilish usullari</p>
	<p>Mas'uliyat va mustaqillik:</p>	<p>1. Kompyuter resurslaridan oqilona foydalanish, dastur ishlashini barqaror saqlash va uzilishlarni oldini olishga javobgar</p> <p>2. Vizual materiallarni tahrir qilishda estetik va texnik me'yorlarga qat'iy rioya qilishga mas'ul</p> <p>3. Qo'llaniladigan tasvirlar va fayllarning xavfsizligini ta'minlash, ma'lumotlarni yo'qotmaslik va saqlashda mas'ul</p> <p>4. Topshiriqlarni mustaqil bajarish, grafik muhitda yuzaga kelgan muammolarni o'z vaqtida aniqlash va hal etishga javobgar</p> <p>5. Topshirilgan grafik fayllarni to'g'ri nomlash, formatlash va muddatida yetkazish bo'yicha javobgar</p>
<p>Texnik va/yoki texnologik talab:</p>		<p>1. Operatsion tizim: Windows 10/11, MacOS Catalina yoki undan yuqori versiya, Linux (Blender uchun).</p> <p>2. Grafik dasturlar:</p> <ul style="list-style-type: none"> - Adobe Photoshop (2020 va undan yuqori) - Adobe Illustrator (vektor ishlovi uchun) - CoreDRAW (poligrafik materiallar uchun) - Blender (3D modellashtirish va vizuallashtirish uchun) - Canva, Figma (qo'shimcha onlayn dizayn vositalari) <p>3. Kompyuter konfiguratsiyasi (o'rta va katta hajmli loyihalar uchun):</p> <ul style="list-style-type: none"> - Protsessor: Intel Core i5 yoki Ryzen 5 va undan yuqori - Operativ xotira (RAM): 8GB (kamidan), 16GB tavsiya etiladi - Video karta (GPU): NVIDIA GTX 1050/1650 yoki AMD Radeon RX 580 va undan yuqori - SSD disk: 256 GB yoki undan yuqori tezkor xotira uchun - Monitor: 1920x1080 (Full HD) ekran, AdobeRGB yoki sRGB 100% qamrovi <p>4. Qo'shimcha qurilmalar:</p> <ul style="list-style-type: none"> - Grafik planshet (masalan, Wacom Intuos, XP-Pen Deco) tasvir tahriri uchun - Skaner va fotoapparat – materiallarni raqamlashtirish va ishlov berish uchun - Ikkinchi monitor – dizayn va vizuallashtirish jarayonida qulaylik yaratish uchun <p>5. Fayl almashinuv va saqlash tizimlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> - Google Drive, Dropbox, OneDrive kabi bulutli platformalar - Lokal arxivlash uchun ZIP/RAR formati va fayl manzillari standart asosida <p>6. Ta'lim va o'rganish vositalari:</p> <ul style="list-style-type: none"> - Videodarslar: Adobe Creative Cloud Learn, Blender

	<p>Guru, Corel Training</p> <ul style="list-style-type: none">- Onlayn platformalar: Coursera, Udemy, YouTube (rasmiy kanallar orqali)- Metodik qo'llanmalar va PDF resurslar <p>7. Litsenziyalangan yoki rasmiy versiyadagi dasturlardan foydalanish talab etiladi, norasmiy va xaklangan dasturlardan voz kechish tavsiya etiladi.</p>
--	---

Kasbning nomi:	Kompyuter grafikasi operatori
Mashg'ulot nomining kodi:	41320
TMR bo'yicha malaka darajasi:	4
Malakani baholash bo'yicha talablar:	Tavsiya etiladi
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Ish staji talab etilmaydi
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	<p>Maxsus ruxsatlar: 18 yoshga to'lgan bo'lishi; Erkak va ayol; Ishga kirishda dastlabki tibbiy ko'rikdan o'tgan bo'lishi; Psixik barqarorlik, ko'rish, ranglarni farqlash, katta e'tibor va diqqatni jamlash, tez reaksiya qilish va ijodiy fikrlash qobiliyatining yetarliligi, shuningdek kompyuter bilan uzoq muddat ishlashga moslashuvchanlik talab etiladi. Ishga munosabat va xulq-atvor:</p> <ul style="list-style-type: none"> - Kasbiy faoliyat doirasida vujudga keladigan turli masalalar yechimini topish usullarini tanlay olish; - Rahbar tomonidan belgilangan maqsadga erishish uchun jamoada ishlay olish; - O'zining kasbiy malakasini va shaxsiy kamolotini takomillashtirib borish; - Jamoada va ma'lum vazifani bajarishga yo'naltirilgan guruhda ishlash, hamkasblar, rahbarlar va mijozlar bilan samimiy, xushmuomala hamda samarali muloqot qilish; - Ta'lim olgan tilida fikrini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qilish; - Umuminsoniy fazilatlarga ega bo'lish, o'z millatini va Vatani sevish, u bilan faxrlanish, milliy urf-odatlar, qadriyatlarni hurmat qilish; - Professional vazifalarni samarali bajarish uchun zarur bo'ladigan ma'lumotlarni qidirish; - Kasbiy faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash; - Kasbga doir hujjatlar bilan ishlash; - Kasbiy faoliyatda xavfsizlik texnikasi va mehnat muhofazasi qoidalariga amal qilish ko'nikmalariga ega bo'lish; - Sanoat va nosanoat tashkilotlarda vujudga keladigan chiqindilarni atrof-muhitga zarar yetkazmaslik choralarini ko'rish va utilizatsiya qilish; - Sohaga oid ekologik madaniyatga rioya qilgan holda faoliyat olib borish.
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	O'rta professional ta'lim
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	Umumiy o'rta (o'rta maxsus) ta'lim yoki boshlang'ich professional ta'lim+norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba

Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:	-	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	5-razryadli ishchi Kompyuter grafikasi mutaxassisi	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'ycha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	4	Kompyuter grafikasi operatori
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
B1.4 – Kompyuterda tayyor grafik materiallar bilan ishlash	B1.01.4 – Rasm, logotip, banner, diagramma kabi tayyor tasvirlar bilan ishlash	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Tayyor grafik materiallarni kompyuter muhitiga import qilish (JPG, PNG, SVG, PSD, AI va h.k.)
		2. Rasm, logotip, banner va diagrammalarni belgilangan topshiriqlar asosida ochish va ko'rib chiqish
		3. Tasvirlarni tuzilishi, sifati va formatini tekshirish
		4. Grafik fayllarni loyiha talablariga muvofiq joylash va nomlash
		5. Qo'llaniladigan platformalarga qarab format va o'lchamlarni muvofiqlashtirish (masalan, veb, poligrafiya, ijtimoiy tarmoqlar)
		Ko'nikmalar:
		Adobe Photoshop, Illustrator, CorelDRAW, Canva va boshqa dasturlarda ishlash
		Grafik fayllar formati va o'lchamlarini to'g'ri tanlay olish
	Tasvir sifati, rezolyutsiya va rang profillarini tahlil qilish	
	Vektor va rastr grafikasini farqlay olish	
	Bilimlar:	
	Grafik fayl formatlari	
	Rasmlarni vizual tahlil qilish mezonlari	
	Loyihalar uchun tayyor grafik kontentni to'g'ri joylashtirish tamoyillari	
	B1.02.4 – Berilgan uslub va shablonlar asosida tasvirlarni tahrirlash	Mehnat harakatlari:
		1. Loyihada belgilangan vizual uslubga muvofiq tahrirlash uchun shablonni tanlash
		2. Tayyor shablonda matn, element, rang va fonlarini o'zgartirish
		3. Logotip, diagramma yoki bannerlarda shrift, ikona va brend elementlarini joylashtirish
4. Har xil qurilmalar uchun tasvirlarni qayta ishlash (masalan, mobil, planshet, ekran)		
5. Tahrirlangan faylni kerakli format va o'lchamda saqlash		
Ko'nikmalar:		
Shablon asosida ishlash va tuzatish kiritish		
Standart uslublardan chiqmaydigan vizual yechimlar yaratish		
Brend-buk asosida tasvirlar bilan ishlash		
Grafik muharrirlarda turli katta-kichik tahrir amaliyotlarini		

		<p>bajara olish</p> <p>Shablon asosida ishlash va tuzatish kiritish</p> <p>Bilimlar:</p> <p>Kompozitsiya, shriftlar, ranglar psixologiyasi</p> <p>Grafik tahrirlash prinsiplari va effektlar</p> <p>Brend uslublari va vizual identifikatsiya</p> <p>Veb va poligrafiya uchun tasvir tayyorlash qoidalari</p>
	B1.03.4 – Kontentni qayta ishlash va turli formatlarga moslashtirish	<p>Mehnat harakatlari:</p> <p>1. Tasvir, banner yoki diagrammani talabga ko'ra qayta ishlash (masalan, format, o'lcham, rang)</p> <p>2. Kontentni veb, mobil va chop etish uchun optimallashtirish</p> <p>3. Grafik materiallarni PNG, JPG, SVG, PDF, WebP kabi formatlarga aylantirish</p> <p>4. Fayl sifatini saqlagan holda hajmini kichraytirish</p> <p>5. Sayt, ijtimoiy tarmoq va poligrafiya uchun tayyor fayllarni arxivlash va topshirish</p> <p>Ko'nikmalar:</p> <p>Konvertatsiya (export/import) amaliyotlari</p> <p>Formatga qarab tasvir sifatini nazorat qilish</p> <p>Web va Print uchun tasvir moslashtirish usullari</p> <p>Batch processing (ommaviy ishlov berish) ko'nikmalari</p> <p>Bilimlar:</p> <p>Turli formatlarning texnik xususiyatlari va qo'llanilish sohalari</p> <p>Kontent sifatini saqlagan holda optimal hajmda tayyorlash</p> <p>Fayllarni standartlashtirish va topshirish qoidalari</p> <p>Turli qurilmalar va brauzerlarda moslashuv qoidalari</p>
	Mas'uliyat va mustaqillik:	<p>1. Tayyor grafik materiallardan foydalanishda vizual talablar va texnik standartlarga to'liq rioya qilishga javobgar</p> <p>2. Tahrirlangan tasvirlarning sifatini ta'minlash va beriladigan formatlarga mos holda tayyorlash uchun mas'ul</p> <p>3. Kliyent, rahbar yoki guruh tomonidan berilgan shablon va uslublarga aniq rioya qilishga mas'ul</p> <p>4. Fayllarni nomlash, saqlash va topshirish jarayonida tashkilot qoidalari va axborot xavfsizligi talablariga amal qilishga javobgar</p> <p>5. Vaqt menejmentiga amal qilib, loyihalarni belgilangan muddatda tayyorlash va topshirishga javobgar</p> <p>6. Tasvirlar bilan ishlash jarayonida mustaqil qaror qabul qilish va texnik muammolarni yechishga mas'ul</p>
B2.4 – Grafik dasturlar va qurilmalarda ishlash	B2.01.4 – Adobe Photoshop, CorelDraw, Illustrator dasturlarida amaliy ishlarni bajarish	<p>Mehnat harakatlari:</p> <p>1. Dasturni ishga tushirish, ishchi maydonni sozlash va hujjat yaratish</p> <p>2. Rasm va grafik elementlar bilan ishlash (layer, mask, shape, vector tools)</p> <p>3. Matn qo'shish, effektlar berish va komponovka yaratish</p> <p>4. Obyektlarni transformatsiya qilish (scale, rotate, warp va</p>

		boshqalar)
		5. Loyihani PSD, CDR, AI, PDF, PNG, JPG kabi formatlarda saqlash
		Ko'nikmalar:
		Adobe Photoshop, Illustrator va CorelDRAW interfeysida erkin harakatlana olish
		Asosiy tahrir vositalarini to'g'ri qo'llay olish
		Loyihaga muvofiq grafik elementlar yarata olish
		Faylni bosma va raqamli platforma uchun tayyorlay olish
		Bilimlar:
		Rastr va vektor grafika farqi
		Grafik muharrirlar logikasi (layer, effekt, blending)
		Brend uslubiga muvofiq dizayn qoidalari
		Rang formatlari: RGB, CMYK, Grayscale va ularning qo'llanilishi
	B2.02.4 – Printer, skaner, plotter, grafik planshetlardan foydalanish	Mehnat harakatlari:
		1. Qurilmani to'g'ri ulash va drayverini o'rnatish
		2. Qurilma orqali skanerlash yoki bosma tayyorlash
		3. Qo'lda chizish uchun grafik planshetni faollashtirish va foydalanish
		4. Skanerlangan hujjatni tahrirlash va saqlash
		5. Qurilma holatini muntazam tekshirish va nosozliklar yuzaga kelganda chora ko'rish
		Ko'nikmalar:
		Printer va skaner bilan to'g'ri ishlash
		Plotter orqali katta formatli chopni tayyorlay olish
		Wacom, Huion kabi grafik planshetlarda asosiy amaliyotlarni bajara olish
		Skanerlash va tozalash funksiyalarini tushunish
		Bilimlar:
		Qurilma formatlari, interfeyslari (USB, Wi-Fi, Bluetooth)
		Printerda rang profillari va qog'oz turlarini tanlash
	Plotter va planshet drayverlarini o'rnatish va boshqarish	
	Qurilmalarda xavfsiz va samarali ishlash tamoyillari	
	B2.03.4 – Fayllarni turli o'lcham va talabga mos ravishda tayyorlash	Mehnat harakatlari:
		1. Topshiriqda belgilangan o'lcham, rezolyutsiya va formatni aniqlash
		2. Loyihani bosma, veb, mobil, ijtimoiy tarmoq va boshqa platformalarga mos ravishda eksport qilish
		3. Fayl hajmini optimallashtirish: sifati va tez yuklanishiga e'tibor berish
		4. Tayyor faylni arxivlash, nomlash va xavfsiz saqlash
		5. Bir necha turdagi fayl versiyalarini tayyorlash (preview, print, source)
		Ko'nikmalar:
		Fayllar o'lchamini o'zgartirish va formatini almashtirish
		Raqamli va bosma platformalarga muvofiqlashtirish
		Faylni tayyor holatda topshirish (ZIP, PDF, PSD, JPG va h.k.)

		Batch export va export presets bilan ishlay olish
		Bilimlar:
		Platforma talablariga mos eksport usullari
		Grafik fayl sifatini baholash mezonlari
		Qayta ishlashdagi fayl xavfsizligi va arxivlash
		Raqamli kontentni optimallashtirish asoslari
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Dastur va qurilmalarda ishlashda texnik qoidalarga rioya etish va xavfsiz faoliyatni ta'minlashga javobgar
		2. Grafik loyihalarni yuqori sifatda va belgilangan muddatda tayyorlash uchun mas'ul
		3. Printer, skaner yoki planshet bilan ishlaganda qurilmaning holatini nazorat qilish va muammolarni mustaqil hal qilishga javobgar
		4. Fayllar formatini topshiriqqa moslashtirish va standartlarga muvofiq ravishda tayyorlashga javobgar
		5. Loyiha sifatini baholash, tashabbus ko'rsatish va yangicha vizual yechimlar taklif qiladi
B3.4 – Chop etish va raqamli tayyorlov ishlarini amalga oshirish	B3.01.4 – Grafik kontentni chop etish uchun texnik jihatdan tayyorlash	Mehnat harakatlari:
		1. Kontentni chop etish talablariga mos ravishda formatlash va tayyorlash
		2. Fayl rezolyutsiyasini (dpi), rang modelini (CMYK) va o'lchamni tekshirish
		3. Qog'oz turini va bosma maqsadini hisobga olgan holda faylni eksport qilish
		4. Kanallar, marjalar, krop belgilari va bleed sozlamalarini kiritish
		5. Test bosma va elektron preview fayl tayyorlash
		Ko'nikmalar:
		Chop etish uchun fayl tayyorlash (PDF/X, TIFF, EPS)
		Adobe Illustrator, InDesign va Photoshop'da bosma formatiga eksport qilish
		Raqamli va ofset bosma talablarini tushunish
		Kontentni CMYK muhitga to'g'ri o'tkazish
		Bilimlar:
		Chop etish formatlari, standart o'lchamlar (A3, A4, B1, va h.k.)
	CMYK vs RGB tushunchasi va amaliyotdagi farqi	
	Qog'oz turlari va bosma uskunalari talablari	
	Grafik kontentda rezolyutsiya va ohang o'lchovlari	
	B3.02.4 – Chop etish qurilmalarini konfiguratsiyalash va boshqarish	Mehnat harakatlari:
		1. Printer va plotter drayverlarini o'rnatish va yangilash
		2. Qurilma rezolyutsiyasini, rang profillarini va qog'oz formati parametrlarini sozlash
3. Bosma jarayonini kuzatish, satr xatolarini bartaraf etish		
4. Qurilmaning holatini tekshirish va moslamalarni ilovalar orqali boshqarish		
5. Patron, rang va qog'oz kabi iste'mol materiallarini nazorat qilish		

		<p>Ko'nikmalar:</p> <p>Professional chop etish uskunalari bilan ishlash (HP DesignJet, Epson SureColor)</p> <p>Drayver o'rnatish va konfiguratsiyalash (Windows, macOS)</p> <p>ICC profillar bilan ishlash va qolipsozlash</p> <p>Printer panellari va ilovalar orqali bevosita boshqarish</p> <p>Bilimlar:</p> <p>Printer turlari</p> <p>Qurilma interfeyslari va ularning ishlash tartibi</p> <p>Chop etishda uchraydigan xatolar va ularni bartaraf etish usullari</p> <p>Qurilmalar xavfsizligi va xizmat muddati</p>
